

**XIII—XIV ASRLARDA ANGLIYADAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY  
O‘ZGARISHLAR**

**Aliboyev Dilshod Davron o‘g‘li**  
**Isroilov Nurhayot Yusup o‘g‘li**  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**Annotatsiya.** *Rim mualliflarida Albion (Albion) nomi ham uchraydiki, bu nom ostida hozirgi kunda yo faqat Angliyani, yo Buyuk Britaniya orolini, yoki barcha Britaniya orollarini tushunadilar. Ayrim manbalarda Anomi lotincha «albus» - oq so‘zidan kelib chiqib, Duvrdagi oq qoyalar bilan bog‘liq, deyilsa, boshqa adabiyotlarda bu so‘z negizida keltcha «alb» - tog‘lar so‘zi yotib, Kornuoll yarim oroli, ya‘ni Tog‘li Shotlandiya bilan bog‘lanadi.*

**Kalit so‘zlar.** *Rim, Albion, shaharlar, Angliya, parlament, ijtimoiy, iqtisodiy.*

**Abstract.** *The name Albion (Albion) also occurs in Roman authors, under which name they now understand either only England, or the island of Great Britain, or all the British Isles. Some sources say that Anomie comes from the Latin word "albus" - white, and is associated with the white cliffs of Dover, while other literature suggests that this word is based on the Celtic word "alb" - mountains, and is associated with the Cornwall peninsula, that is, Highland Scotland.*

**Keywords.** *Rome, Albion, cities, England, parliament, social, economic.*

XIII—XIV asrlarda Angliya shaharlarining o‘sishi, pul-tovar munosabatlarining taraqqiysi ingliz votchinasida (manor) katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Lordlar mumkin qadar dehqondan ko‘prok pul undirishga harakat qilib, soliqni pul tarzida olinadigan soliq bilan almashtirishni (kommutatsiya qilishni) foydaliroq deb bildilar. Buning natijasida lordlar o‘z qaramog‘idagi yerni (domenni) kam yerli dehqonlardan iborat bo‘lgan yollanma ishchilar mehnati bilan ishlaydigan bo‘ldilar. Ba‘zi lordlar hech qanday xo‘jalik yuritmay, tayyor pul rentasi olishni afzal ko‘rib, domen-ni ijaraga ham berdilar. XIII asrlardayoq kommutatsiya katta yutuqlarga erishib, XIV asrning birinchi yarmida u qator hududlarda barshchina tartibini butunlay siqib chiqardi. Ayniqsa, ko‘pchilik rivojlangan hududlarda kommutatsiya keng sur‘atda amalga oshirildi.

Angliyaning shimoli-g‘arbiy hududlarida, qisman markaziy rayonlarida, qo‘ychilik rivojlanib; bu yerlarda kommutatsiya jarayoni keng joriy etildi. G‘allachilik muhim ahamiyat kasb etgan janubi-sharqiy grafliklarda kommutatsiya jarayoni sekinroq bordi. Umuman olganda, butun Angliyada pul rentasi tobora ko‘p tarqala borib, natijada ingliz

dehqonlari shaxsan erkin kishilarga aylanib bordilar. Pul bilan to‘lanadigan dehqon majburiyatlari ko‘payib bordi. Lordlar qo‘ychilikni kengaytirish uchun dehqon jamoalariga qarashli chek yerlarni, yaylovlarni egallab ola boshladilar. Bularning hammasi dehqonlarning ahvolini og‘irlashtirib, ularning noroziligini oshirib bordi.

XIV asr o‘rtalarida feodal reaksiyasi avjga chiqib, uning dehqonlarningina emas, xalfa va hamma yollanma ishchilarning ahvolini yanada og‘irlashtirishga sabab bo‘lgan. XIV asrda Angliya–da qabul qilingan ishchi qonunlar va farmonlar bunga yengillik kirita olmadi.

1348 yili Angliyada «Qora o‘lat» yoki «Qora ajal» deb nomlangan mudhish vabo epidemiyasi natijasida qishloq aholisining ko‘pchiligi qirildi. Natijada shaharda ham, qishloqda ham ishchi kuchi yetishmay qoldi. Endilikda lordlar kerakli miqdorda qishloq xo‘jaligi ishchilarini topolmay qoldilar. Ishchi kuchining yetishmasligi natijasida yirik pomestelarda lordlar tomonidan xatto ilgari bekor qilingan barshchinani qaytadan tiklash uchun intilishlar boshlandi.

Angliya qirol hokimiyati feodal va sex ustalarining manfaatlarini ko‘zlab 1349 yil farmon chiqardi. Bu ishchi va xizmatchilar haqida ordonans (1349 y.) deb ataldi. Ordonans Angliyada o‘lat epidemiyasi — «Kora ajal» tarqalishi natijasida ishchi kuchlari nihoyatda kamayib ketgan (1348 y.) va ishchi qo‘llar nihoyatda qimmatlashib ketgan davrga taalluqlidir. Bu hujjat yollanma ishchilardan foydalanuvchilarni arzon ishchi kuchi bilan ta‘minlashga qaratilgan ishchi kuchi qonunshunosligini xarakterlaydi va davlatning bu haqdagi qator qarorlarini aks ettiradi.

Qonun shahardagi kabi qishloqda ham mulkdorning manfaatlarini qimoya qiladi. Ishchilar va xizmatchilar haqidagi ordonans 1349 yil 18 iyulda qirol nomidan butun Angliya grafligiga tarqatiladi.

«Qora ajal» dan keyin Angliyadagi . dehqonlar–ning og‘ir ahvolini bu qonun yana ham og‘irlashtirdi, toifaviy kurashni esa yanada keskinlashtirdi va XIV asrning ikkinchi yarmidagi Uot Tayler boshchiligidagi dehqonlar qo‘zg‘olonining kelib chikishiga sabab bo‘ldi.

Xizmatkorlarning kam sonliligini va xo‘jayinlarning qiyin ahvolda qolganligini ko‘rgan ayrim kishilar xaddan tashqari kam haq olib ishlashni xohlamay qoldilar. Ayrimlari esa mehnat qilib kun kechirish o‘rniga yig‘inlarda sadaka so‘rab, kun kechirishni afzal ko‘ra boshladilar.

«Biz ayniqsa yer xaydash va boshqa qishloq xo‘jalik ishlarida ishchi kuchi yetishmasligi natijasida ro‘y berayotgan qiyinchiliklarni nazarda tutib, mamlakatdagi bilimdonlar va boshqalar bilan fikrlashib shunday qarorga keldik — deyiladi farmonda, — bizning Angliya qirolligimizdagi. 60 yoshgacha mustahkam kuchga ega bo‘lgan erkinmi yoki krepostnoymi, bundan qat‘i nazar, har bir erkak yoki ayol savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan

shug‘ullanmasa, o‘z xususiy mulki, yeriga ega bo‘lmasa, o‘z yerlarini boshqalarga bo‘lib berish bilan band qilmasa, biror kishining xo‘jaligida ishlamas, unday holda kim uni o‘z xo‘jaligida ishlashga chaqirsa, u unga borib ishlashga majburdir. Xizmat haqini esa keyingi besh-olti yil davomidagi miqdorda pul bilan yoki natura bilan oladi.

Agar erkak yoki ayolni ishga yollayotgan vaqtda ular bunga ko‘nmasalar va bu narsa sherif yoki qirolning beyligi yoki qishloq oqsoqoli oldida ishonch qozongan ikkita odam tomonidan tasdiqlansa, — u holda bu voqea qayerda sodir bo‘lganidan qat’i nazar, ular darhol ikki kishi yoki ularning odamlari tomonidan ushlanishi va eng yaqin qamoqxonaga jo‘natilishi, u yerda qattiqqo‘llik bilan ushlanishlari zarur. Ularning yuqoridagi ko‘rsatilgan qoidalarga amal qilib ishlashlariga kafillik berilmaguncha, ular qamoqdan bo‘shatilmasliklari lozim.

Agar birovning eshigida ishlab yurgan don yanchuvchi, o‘roqchi yoki boshqa qishloq xo‘jalik mehnatini bajaruvchi kishi qanday ahvolda bo‘lishidan qat’i nazar, oqilona sababsiz yoki xo‘jayinning ruhsatisiz shartnomadagi ishlarni to‘lik bajarmasdan va shartnomada ko‘rsatilgan vaqtdan ilgari xo‘jayinnikidan ketib qolsa, u qamoqxonaga tashlanish bilan jazolanishi lozim».

Bunday qonunlarning joriy qilinishi qishloq qambag‘al aholisini va shahar plebeylarining nafratini kuchaytirdi va ommaviy dehqon qo‘zg‘olonlarining boshlanishini tezlashtirdi.

Angliyada Yuz yillik urush ehtiyojlari uchun jon solig‘ining joriy qilinishi ham qishloq aholisining g‘azabini oshirib yubordi, Angliyada dehqon qo‘zg‘olonlari ning boshlanishiga turtki bo‘ldi.

Lollardlar—«dadil targ‘ibotchilar» ichidan mavjud tartiblarning adolatsiz ekanligini Tavrotdan misol keltirib isbotlashga uringan targ‘ibotchilar chiqib, hammaga tenglik talab qilganlar. Ularning eng talantlisi Jon Boll va uning shogirdlari bo‘lgan, ular feodallarga qarshi chiqib, cherkov soliqlarini tugatishni, cherkovning katta mulklarini tortib olib, mulksiz dehqonlarga taqsimlab berishni talab qilganlar<sup>2</sup>.

Bizgacha ingliz yirik pomeste xo‘jaligini ifodalab beruvchi ko‘p hujjatlar yetib kelgan. Ular Rossiyalik tarixchilar tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va xrestomatiyalarga kiritilgan. Ular ichida xronikalar bilan birga yangi xujjatlarni: Angliya tarixida umumpalataga topshirilgan petitsiyalar (talabnomalar), 1381 yilgi qo‘zg‘olonchi dehqonlarning programmalari va usha asrlarda yozilgan adabiy asarlarni aytib o‘tish mumkin.

Angliyada bu davrda hujjatlarni tuzish ishlari cherkov pomestelarida yaxshi olib borilgan. Biz bitta hujjatni keltiramiz: dehqon to‘lov va majburiyatlari haqidagi tekshirishdan parchalar (1252 y. Ripton abbatining pomestesida o‘tkazilgan).

Ripton abbatining pomestesi, ya'ni manorning xo'jaligi tipik feodal pomestesi bo'lib, tekshirish hujjatlari dehqon majburiyatlarining xarakteri, turli formadagi feodal rentalari, feodal ekspluatatsiyasining haddan tashqari og'irligi, dehqon huquqlari va qisman ularning qanchalik yer bilan ta'min etilganligi haqida tushuncha beradi.

Shuningdek, «Dehqon kushig'i» manbasi mavjud bo'lib, u XII asrdagi xalq ijodiyotining ajoyib namunasi bo'lib, rasmiy hujjatlarga qaragan-da, dehqonlarning haqiqiy ahvolini ko'rsatib beradi. «Dehqon qo'shig'i» dehqonlarning turmush sharoitini ifodalabgina qolmay, ularning kayfiyatlarini ham izohlaydi. XIII asrda feodal ekspluatatsiyasining kuchayishi dehqon karama-karshiliklarining o'sib borishiga sabab bo'ldi. Shunday sharoitda hokimiyat feodallarning villanlarni ekspluatatsiya qilish huquqini yana ham asoslab beradi.1

Huquq masalasida alohida ishlar ham mavjud. Ayniksa, Genri Braktonning «Angliyaning qonun va odatlari haqida» (XIII asr o'rtalari) deb nomlangan traktati katta ahamiyatga ega. Genri Brakton ruhoniy tabaqasidan chiqqan bo'lib, Rim qonun va huquqlari bilan yaxshi tanish bo'lgan. U ko'p yillar kezib yuruvchi sudya vazifasida ishlab, qator grafliklarda bo'lgan, 1248—1252 yildan Qirol oliy sudining doimiy a'zosi bo'lgan. Uning kitobi, o'sha vaqtdagi sud ishlari tajribasini umumlashtirib, qirollikdagi hamma sud apparatlari uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan2.

Ushbu asardan ko'rish mumkinmi, feodal davlat feodallarning huquq va manfaatlarini himoya qilgan va villanlar sudga murojaat qilganda, o'z manfaatlarini himoya qilishga umid bog'lashgan, biroq har doim maqsadlariga erisha olmaganlar.

1381 yilgi qo'zg'olonning boshlanish arafasidagi sharoit umumpalataga topshirilgan petitsiyalarda o'z aksini topgan. Shuningdek, bizgacha yetib kelgan xronikalarning ko'pchiligida 1381 yilgi dehqonlar qo'zg'oloniga alohida ahamiyat berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qo'zg'olon - dehqonlar qo'zg'olonigina bo'lmay, balki shahar plebsining ham qo'zg'oloni edi. Harakat ayniksa London va Angliyaning janubi-sharkiy shaharlarida juda keskin tus oldi.

Bu borada ayniqsa Tomas Uolsingemning «Angliya tarixi» deb nomlangan asari va XIX asrning oxirida topilgan «Anonim xronika» si katta ahamiyatga ega. Bu xronika Yorkdagi mukaddas Mariya monastiriga tegishli bo'lgan. Bu xronikaning muallifi oddiy monax (rohib) bo'lib, uning shaxsiga tegishli ma'lumotlar saqlanmagan. Qo'zg'olonga tegishli voqealarning ma'nodor qilib tasvirlanishi xronikachining voqea ishtirokchisi bo'lganligini ko'rsatadi.

Xronikaning o'sha davrda yashagan noma'lum muallifi dehqonlar urushining borishi, dehqonlarning dasturlari, talablari va qo'zg'olonning yengilish sabablari haqida har tomonlama aniq ma'lumot beradi. Xronikachining harakat ishtirokchilariga dushmanlik munosabatida bo'lishi va o'zining bu munosabatini yashirmasligiga qaramasdan, manba

juda qiziqarli va haqiqiy faktlar haqida ma’lumot beruvchi tarixiy xujjat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tomas Uolsingem Sent—Olban monastirining mo’naxi bo‘lib, ko‘plab eski xronikalarni qayta ishlab chiqib, «Angliya tarixi» ni (1377—1422 yillar) yozadi. Ikkala xronikachi ham xalq qo‘zg‘oloniga dushmanlik munosabatida bo‘lsalar-da, qimmatli faktik materiallar qoldirganlar.

### Foydanilgan adabiyotlar

1. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 47-53.
2. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 28-41.
3. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O‘ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 11-27.
4. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 90-101.
5. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 90-101.
6. Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOYILLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 203-214.
7. Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXELOGIYASI TADQIQOTLARIDAN. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 192-202.
8. Vildanovich, G. S., & Davron o‘g‘li, A. D. (2025). MARKAZIY OSIYO XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA (1992–2009): MINTAQAVIY TIZIM OSTINING SHAKLLANISHI VA EVOLYUTSIYASI. YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI, 1(2), 338-341.
9. Abdumatov, A., & Aliboyev, D. (2024). SOME CONSIDERATIONS FROM THE HISTORY OF DEFENSE FACILITIES OF CENTRAL ASIA. Ilm-fan va ta'lim, 2(4), 19.

10. Davron o‘g‘li, A. D. (2025). INSON, ONG VA BORLIQ: FALSAFIY YONDASHUV. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 3(5), 462-467.

11. Kurambayev, B., & Freedman, E. (2020). Ethics and journalism in Central Asia: A comparative study of Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Uzbekistan. *Journal of Media Ethics*, 35(1), 31-44.

12. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Хх аsr бoshларida mirzachol vohasidagi agrar o‘zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство jurnali asosida). Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 631-634.

13. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). *Проблемы современной науки и образования*, (11 (53)), 44-45.

14. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX–начале XX века. *Каталог авторефератов*, 1(1), 1-30.

15. Мирзаева, Н. Ж. (2025). XIX АСРНИНГ ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИОН ЖАРАЁНЛАР. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(4), 58-67.

16. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

17. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

18. Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3), 40.

19. Nazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(3), 66-64.

20. Nazarov, O. R., & Saydullayev, S. (2024). AVESTO. EZGULIK TIMSOLIDIR. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).